

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

LINGVISTIKA

2024 Vol. 2 (1)

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir:	Hamidulla Dadaboyev
Bosh muharrir o'rinbosari:	Zulxumor Xolmanova
Mas'ul kotib:	Dilafroz Muhammadiyeva

Tahrir hay'ati

Baxtiyor Abdushukurov, Samixon Ashirboyev, Sulton Normamatov, Munavvara Qurbonova, Muhayyo Hakimova, Dilarabo Baxronova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmonova, Marhabo Umurzoqova, Manzura Shamsiyeva, Zilola Shukurova, Gavhar Komilova, Kamola Rixsiyeva, Iqbol O'razova, Muhabbat Madaminova, Rohila Abdullayeva, Saodat Israilova, Mushtariy Xolmurodova, Nodir Jo'raqo'ziyev.

Jurnal haqida ma'lumot

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

"Lingvistika" Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi "O'zbekiston: til va madaniyat" jurnalining tilshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda to'rt marta e'lon qilinadi. "Lingvistika" seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajyor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning lingvistika yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

"Lingvistika" seriyasi 2021-yil mart oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:	Hamidulla Dadaboev
Deputy Editor in Chief:	Zulkhumor Kholmanova
Executive secretary:	Dilafruz Muhammadiyeva

Editorial Committee

Bakhtiyor Abdushukurov, Samikhon Ashirbayev, Sultan Normamatov, Munavvara Kurbanova, Muhayyo Hakimova, Dilrabo Bakhronova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmanova, Marhabo Umurzakova, Manzura Shamsiyeva, Zilola Shukurova, Gavhar Komilova, Kamola Rikhsiyeva, Iqbol Urazova, Muhabbat Madaminova, Rohila Abdullayeva, Saodat Israilova, Mushtariy Kholmuradova, Nadir Jorakoziyev.

Journal information

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results. The authors' ideas may differ from those of the editors'.

“**Linguistics**” is a linguistic series of the journal “Uzbekistan: Language and Culture” which in the list of scientific publications of the High Attestation Commission, published four times a year. The “Linguistics” series publishes linguistic articles by professors, doctoral students, trainee researchers, independent researchers, and masters.

The “Linguistics” series was launched in March 2021.

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

Mundarija

Lingvistika

Shuhrat Hayitov

Bobur asarlarining filologik tadqiqi.....6

Kamola Rixsiyeva

Qa= asosli lingvistik birliklarning semantik to'r asosidagi tahlili19

O'razova Iqbol

Eski o'zbek tilidagi "holat" semali frazemalar tahlili (XIV asrning II yarmi manbalari asosida)28

Mamarajabova Iroda

Eski o'zbek turkiy tildagi vaqt konseptini ifodalovchi leksemalar taraqqiyoti42

Ma'suma Mo'minova

Suv komponentli frazemalarda milliy-madaniy belgilar ifodasi57

Israilova Saodat Turapovna, Dilnoza Jumanova

Diskurs va uning ilmiy talqini67

Zahro Abruyeva

Ijtimoiy muloqotga xos ayrim murojaat shakllarining lingvokognitiv tahlili75

Shaxlo Baxodirova

"O'tgan kunlar" romanidagi lakunar birliklar88

Zarnigor Davronova

Badiiy matnda antroponim va unga yondosh tushunchalarning lingvistik xususiyatlari (Abdulla Qodiriy ijodi asosida)100

Zarifa O'rinova

Aforizmlar – intertekstual birlik sifatida113

Saodat Israilova, Gulnoza Rayhonova

Tezauruslardagi shaxs otlarining paradigmaticasi125

Mirzayeva Go'zal

Dunyo va turk tilshunosligidagi neyrolingvistik tadqiqotlar xususida132

Azizova Nilufar

"Devoni lug'otit turk"dagi "oziq-ovqat" semali leksik birliklarni semantik maydon asosida tadqiq etish142

Content

Linguistics

Shukhrat Khaitov

A philologik study of Babur's works6

Kamola Rixsiyeva

Semantic web-based analysis of qa= based linguistic units19

Iqbol Urazova

Analysis of phrases with the term "state" in the old uzbek language
(Based on the sources of the second half of the 14th century)28

Mamarajabova Iroda

Development of lexemes with the concept of time in the straotürkic
language42

Ma'suma Mo'minova

Expression of national – cultural signs in phrases with a water
component57

Israilova Saodat Turapovna, Jumanova Dilnoza

Discourse and its scientific interpretation67

Zakhro Abrueva

Linguistic-cognitive analysis of social communication forms of
address75

Shaxlo Baxodirova

Lacunar units in the novel "O'tgan kunlar"88

Zarnigor Davronova

Linguistic features of anthroponym and related concepts in literary text
(based on the works of Abdullah Qadiri)100

Zarifa O'rinova

Aphorisms – as an intertextual unit113

Saodat Israilova, Gulnoza Rayhonova

Paradigmatics of personal nouns in thesauruses125

Go'zal Mirzayeva

About neurolinguistic research in world and Turkish linguistics132

Nilufar Azizova

Studying the lexical units of "food" in the "Devoni lugotit turk" based on
the semantic field142

Aforizmlar – intertekstual birlik sifatida

Zarifa O'rinova¹

Abstrakt

Ushbu maqola aforizmlarning intertekstual birliklar sifatida badiiy matnni shakllantirishdagi ahamiyatini yoritishga qaratilgan bo'lib, bunda aforizmning lug'atlarda berilgan izohi, maqol va matallardan farqi haqida so'z borgan. Aforizmga xos asosiy xususiyatlar, aforizmning jahon va o'zbek tilshunosligida intertekstual birlik sifatida o'rganilishi, ilmiy-nazariy, falsafiy nutqlarda hamda badiiy asar matnlarida uchragan aforizmlarning turlari, badiiy asar qahramoniga tegishli bo'lgan bir nechta aforistik matnlar, obrazning axloqiy xaritasini, uning xarakter portretini tanishtirishi mumkinligi tahlil qilingan va misollar asosida dalillangan. Aforistik matnlarning intertekstualligini aniqlash uchun lingvistik stilistika, matn lingvistikasi, lingvistik pragmatika, kognitiv tilshunoslik hamda adabiyotshunoslik fanlarining kesishuvida, ya'ni integratiyasi asosida tahlillar olib borish lozimligi alohida ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: *Aforizmlar, intertekstuallik, matn, aforistik matn, sintaksis, matn lingvistikasi, kognitiv tilshunoslik, lingvopoetika, intertekst.*

Kirish

XX asrning II yarmi jahon va o'zbek tilshunosligi uchun o'zgarishlar, yangilanishlar, yangi tilshunoslik yo'nalishlarining paydo bo'lish davri sifatida tarixda qoldi. Xususan, tilshunoslik bo'limlarining o'rganish obyektlarida ham o'zgarishlar yuz berdi. Sintaksisning o'rganish obyekti sifatida endi so'z birikmasi va gap bilan bir qatorda matn ham qayd etila boshladi. Sintaksisning o'rganish obyekti uchta va shunga muvofiq, sintaksis ham uch turga bo'linadi:

- 1) so'z birikmasi sintaksisi;
- 2) gap sintaksisi;
- 3) matn sintaksisi. (N.Mahmudov; A.Nurmonov 1995, 5)

Dastlab sintaksisning o'rganish obyekti hisoblangan matn, keyinchalik, matn lingvistikasi nomli zamonaviy tilshunoslik yo'nalishining paydo bo'lishi, shakllanishi uchun asos bo'ldi. Matn

¹ O'rinova Zarifa – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.

E-pochta: zarifaorinova@gmail.com

Iqtibos uchun: O'rinova Z. "Aforizmlar – intertekstual birlik sifatida". *O'zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika.* 2024-2: 113-124.

tilshunoslikda dastlab, sintaktik va semantik jihatidan tadqiq etilgan bo'lsa, keyinchalik, psixolingvistik, lingvokulturologik, sotsiolingvistik, lingvopoetik, pragmatik va kognitiv nuqtayi nazaridan tahlil o'rganila boshladi. Matn tahliliga inson omili nuqtayi nazaridan yondashildi. Bu asosan, XXI asrda tilshunoslikda matnni antroposentrik tahlil qilish natijasida yangidan yangi zamonaviy yo'nalishlarining paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Dastlab, matn tushunchasi va uning tilshunoslikdagi izohi, talqini haqida to'xtalamiz.

O'zbek tilining izohli lug'atida "matn" atamasiga shunday ta'rif berilgan:

1. Yozilgan, ko'chirilgan yoki bosilgan ijodiy, ilmiy asar, nutq, hujjat va shu kabilar yoki ularning bir parchasi; matn. Maqolaning teksti. 2. Musiqa asariga, masalan biror kuyga, opera, romans va shu kabilarga asos bo'lgan she'r, so'z.

3. Poligrafiyada yirik shriftlardan birining nomi (O'TIL, 165).

Yuqorida keltirilgan ta'rifdan anglashiladiki, izohli lug'atda matnga umumiy, asosan, shakliy jihatiga e'tibor berilgan holatda ta'rif berilgan. Ya'ni matnning asosiy xususiyatlari, matndagi gaplarning o'zaro ichki munosabati, eng yirik sintaktik butunlik ekanligi, matn tasnifi (turlari) va vazifalari masalalari ta'rifda aks etmagan. Albatta, izohli lugatda matnning ilmiy ta'rifi berilmagan, ommabop, ko'pchilik uchun tushunarli bolishi nazarda tutilgan.

XX asrning 60-yillaridan boshlab tilshunos olimlar psixolingvistlar bilan hamkorlikda matnning mohiyatini, uning shakllanish bosqichlarini tadqiq etishga kirishdilar. Natijada nutq hodisasiga juda keng doirada yondashilib, har qanday matn kishi nutqiy faoliyatining mahsuli, degan ilmiy qarash tilshunoslikdan mustahkam o'rin oldi. (Xomidova 2020, 55).

Demak, matn tilshunoslikda til birligi emas, balki nutq birligi sifatida tahlil qilinadi. Nutqni esa idrok etish, tushunish, tahlil qilish, baholash tilshunoslikdagi muhim masalalardan biridir. Matn tilshunosligi matn bilan bog'liq masalalar bilan shug'ullanadigan soha sifatida shakllandi.

Ma'rufjon Yo'ldoshev badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida quyidagi tamoyillarga tayanib ish ko'rish maqsadga muvofiqligini qayd etgan:

1. Shakl va mazmun birligi tamoyili.

2. Makon va zamon birligi tamoyili.

3. Badiiy matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini aniqlash tamoyili.

4. Badiiy matndagi poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash tamoyili.

5. Badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarini aniqlash tamoyili (Yoʻldoshev; Isaqov; Haydarov 2010, 29)

Badiiy matnni semantik idrok etishning, tahlil qilishning intertekstuallik mexanizmini aniqlash asosida matnning oʻziga xos xususiyatlarini aniqlash mumkin.

Jahon tilshunosligida, shuning barobarida oʻzbek tilshunosligida ham intertekstuallikning badiiy matnni tushunish va idrok etishdagi ahamiyatiga alohida eʼtibor qaratilgan. Xususan, zamonaviy matnda intertekstual birliklarning qoʻllanishi haqida M. Xolbekov oʻrinli va haqli izoh bergan: “Intertekstuallikni har bir matnning, ayniqsa, zamonaviy matnlarning yaqqol ifoda etilgan ajralmas qismi deb olsak, shunday bir xulosaga kelamizki, zamonaviy matn oʻzida qanchalik koʻp asarlarni aks ettirsa, shunchalik kitobxonni “madaniylashtirish” salohiyatiga ega boʻladi. (Xolbekov 2013,)

Jahon tilshunosligida xususan, rus tilshunosligida semiotik gʻoyalari orqali katta burilish qilgan, matnning yashirin mazmuni kabi masalalar haqida tadqiqot olib borgan Y.M.Lotman intertekstuallikning badiiy matndagi yashirin mazmunni aniqlashda alohida oʻrni borligini taʼkidlagan va matnning quyidagi xususiyatlarini qayd etgan:

1. Adabiyot, sanʼat, madaniyat insoniyat yaratgan semiotik tizim sifatida baholanadi. Yaʼni alohida izolyatsiyalangan til yoki matnning oʻzi yoʻq, u avvaldan mavjud semiotik tizimning bir minimal qismi sifatida axborot beradi.

2. Maʼlumotlar matn orqali saqlanadi va uzatiladi, bunda matnning quyidagi uch funksiyasi muhimdir: xabarlarini uzatish, yangi fikrlar yaratish va madaniy bilimlarni toʻplash.

3. Matn qotib qolgan va oʻzgarmas birlik emas, u doim boshqa matnlar bilan aloqadadir. Matn va oʻquvchi xuddi dialog ishtirokchilari kabidir. Matn auditoriyaga qarab yangidan yaratiladi, yaʼni muallif matnlar dunyosida oldingilariga oʻxshash yana bir yangi matn paydo qiladi.

Yuqorida keltirilgan taʼrifda intertekstuallik, intertekst kabi terminlar uchramaydi. Ammo, “izolatsiyalangan til yoki matn yoʻq, u avvaldan mavjud semiotik tizimning bir minimal qismi”, “madaniy bilimlarni toʻplash”, “u doim boshqa matnlar bilan aloqada”, “muallif matnlar dunyosida oldingilariga oʻxshash yana bir matn paydo qiladi” kabi jumalalarda intertekstuallikka ishora mavjudligini koʻrish

mumkin.

Intertekstual birliklar badiiy matnga kitobxonning e'tiborini yanada ko'proq jalb qilishga yordam beruvchi vositalardir.

Intertekstuallik termini 1967-yilda fransuz olimasi Y. Kristeva tomonidan ishlatilgan (Kristeva 1967). Olima intertekstuallik hodisasi, asosan, ilmiy va badiiy matnda uchrashini ta'kidlab, ko'proq badiiy matnda intertekstuallik tamoyiliga urg'u berilishini qayd etadi. (Xomidova 2021) Lug'atlarda ham intertekstuallik tushunchasiga ta'riflar berilgan bo'lib, ulardan birida shunday deyilgan: Intertekstuallik bu – matn ma'nosining boshqa matn orqali shakllanishidir. (Online Etymology Dictionary 2015) Zero, hozirgi har qanday badiiy matnda intertekstuallik elementlari kuzatilishi mumkin.

Intertekstuallik, *inter* “o'rtasida”, “orasida”, *tekst* “matn” so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, matn ichida matn kelishini nazarda tutadi. Matnlar orasida nafaqat butun bir matn, balki boshqa bir matnga ishora qiluvchi birliklar (pretsedent nomlar) ham uchraydi. Mana shu hodisalar jamlanmasi dunyo tilshunosligida intertekstuallik deb yuritilmoqda va tadqiq qilinmoqda.

Intertekstuallik va uning turlari, o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida tadqiqot olib borgan rus olimasi N.Fateeva badiiy matndagi intertekstlarni quyidagicha tasniflaydi:

1. Allyuziya
2. Reminissensiya
3. Epigrafi
4. Sarlavha
5. Havola (sitata)
6. Aforizmlar
7. Maqol, matal (Фатеева 1998, 25-30)

Biz ushbu tasnif boshqa tilshunos olimlar tasnifiga qaraganda ancha muakammal va intertekstuallikni o'zida to'liq aks ettirgan, deb hisoblaymiz.

Quyida intertekstual birliklar sifatida aforizmlarning badiiy matnni tushunishdagi, matnning ta'sirchanligini oshirishdagi ahamiyatiga to'xtalamiz.

Asosiy qism

Aforizm intertekstual birlik bo'lib, odatda juda qisqa, kitobxon tomonidan oson esda qoladigan, va albatta, didaktik mazmun aks etgan fikrdir. Aforizmga o'zbek tilining izohli lug'atida shunday ta'rif beriladi: Aforizmlar (yun. *Aphorismos* – hikmatli so'z) ixcham shaklli, chuqur mazmunli, muallifi aniq gap; hikmatli so'zlar. Masalan: *Oz*

demak hikmatga bois, oz yemak hikmatga bois. Alisher Navoiy". Muallifning mavjudligi aforizmlarning eng asosiy xususiyatlaridan biridir.

Adabiyotshunoslik terminlari izohiga bag'ishlangan lug'atlarda ham aforizm terminiga ta'rif berilgan: "Aforizm (yunoncha "dono gap") – qisqa, sayqallangan shaklda, favqulodda ifodaviyligi va kutilmagan hukmi bilan ajralib turuvchi, biror muallifning chuqur umumlashtiruvchi fikri. Aforizm maqoldagidek biror narsani isbotlamaydi, asoslamaydi, ammo kishi ongiga o'zining betakror ifodaliligi bilan ta'sir ko'rsatadi. Aforizmning ifodaliligi tarkibidagi so'zlarning miqdoran kamayishi bilan kuchayadi. Aforizm jozibadorligining sir-asrori uning bevosita aytilgan fikrdan ham ko'proq mazmunga ega bo'lishidadir. Uning haqiqiy ma'nosi tahlil orqali ochiladi. Aforizmning maqoldan farqi aniq muallifga egaligi, muqarrar ravishda voqe bo'ladigan betakror hukmidadir" (Тимофеев; Тупаев 1974, 23-24)

Ko'rish mazkur ta'rifda ham muallifning mavjudligiga alohida e'tibor berilgan, shu bilan bir qatorda, aforizmning maqol bilan o'xshash va farqli jihati ham yoritilgan. Boshqa bir lug'atda aforizm maqolga tenglashtirilgan: "Aforizm (yunoncha hikmatli so'z) avtor ma'lum bo'lgan, chuqur mazmunli, aniq va ixcham shaklli hikmatli gap. Aforizmda so'z qancha oz bo'lsa, uning ifodaliligi, o'tkirliigi shuncha ortadi. Xalq maqollaridan farqli ravishda aforizmlarning avtor hamma vaqt aniq bo'ladi. Xalq maqollari ham keng ma'noda xalq aforizmlari deyiladi" (Хотамов; Саримсоқов 1979, 37-38) Ba'zi adabiyotshunoslar aforizmlarni mustaqil janr sifatida talqin qilishgani aforizmlarning adabiyotshunoslikda alohida o'rni borligini ko'rsatadi.

Aforizmlarning tarixi qadimgi Rim, Yunonistonga borib taqaladi. Qadimgi yunon tarixchisi Geradot aforizmlarga ishora qiluvchi shunday fikr bildirgan: "Qadimgi odamlarda chiroyli so'zlar, dono gaplar ko'p bo'lgan, biz esa ularni o'rganamiz va foydalanamiz". [<http://www.festival.september.ru>]

Demak, insoniyat oldin yashab ijod etgan olim-u fuzalolarning purma'no hikmatli so'zlaridan foydalanib, nutqini yanada ta'sirchan, yanada jozibali qilib shakllantira oladi. Tilshunoslikda aforizmlar matnni obrazli, tinglovchi yoki o'quvchiga ekspressiv-emotsional ta'sir etishni ta'minlagani bois intertekstual birlik sifatida qayd etiladi.

Aforizmlarni intertekstual birlik sifatida o'rganish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Nemis tilshunosligida aforizmlarni

intertekstual fenomen sifatida o'rganish Sadovaya (1976), Manyakina (1980), Elenevskaya (1983), Radzievskaya (1988) kabi olimlarning matn tipologiyasi va lingvistik stilistikaga oid izlanishlarida kuzatiladi.

Aforizmni o'rganish bo'yicha sotsiolingvistik va psixolingvistik aspektda amalga oshirilgan bir qator izlanishlar mavjud: Wanning (1989), Rapoport (1999), Abdyusheva (2001).

Rus tilshunosligida XX asrning so'ngi o'n yilligida aforizmga bag'ishlangan tadqiqotlar salmog'i ortdi. Dmitriyeva (1997), Nguyen (1999), Shatalova (2000) kabi olimlar aforizmning adabiy tanqid va tilshunoslikda tutgan o'rni masalalarini tahlil qilganlar.

Qayd etilganidek, aforizmlar intertekstual birlik hisoblanadi. Aforizmlarning quyidagi xususiyatlari uning intertekstual belgilarga ega ekanligini ko'rsatadi:

1. Aforistik matnlar bitta muallifga tegishli.
2. Aforistik matn aniqlikka ega.
3. Aforistik matnning argumentatsiya sxemasi ikki tomonlamadir: asar olamiga va uning doirasidan tashqariga (ya'ni boshqa asl matnga) qaratilgan bo'ladi.

Demak, aforizm o'zi tegishli bo'lgan matn va aforizm sifatida qo'llanilayotgan boshqa bir matn o'rtasida mazmuniy aloqadorlikni ta'minlaydi va lisoniy shaxs egasi ushbu yangi matnni o'qiganda, boshqa (asl manba) matnga xos ma'lumotlarni ham miyasida tiklay oladi. Ya'ni assotsatsiya hosil qiladi. Bu esa intertekstuallikning eng muhim omilidir.

Aytish mumkinki, aforistik matnlar intertekstual birlik sifatida matnlararo aloqani shakllantirar ekan, ilmiy-nazariy, falsafiy nutqlarda hamda badiiy asar matnida aforizmlar quyidagicha aks etadi:

- aniq atribut: muallifning ismi va asar nomi ko'rsatiladi; chiqish ma'lumotlari va sahifa raqamlari ko'rsatilmaydi;
- takror ishlab chiqarishning oziga xosligi: aforizmning aniqligi; ba'zan keltirilgan matnning asl tili saqlanib qoladi;
- belgililik: markerlar grafik vositalar yoki metamatn operatorlari sifatida.

Yozuvchilar qayd etilgan birinchi va ikkinchi turidan ko'proq foydalanishsa, ilmiy matnlarda uchinchi turini ko'proq uchratish mumkin. Xususan, Tohir Malikning "Falak" qissasida Umar Hayyomga tegishli shunday aforizm keltiriladi:

*Yo rab, loyimni-ku, qorgan o'zingsan,
O'rish-arqog'imni o'rgan o'zingsan.*

Yomonmanmi, yaxshi, men qandoq qilay?

Taqdir manglayini bergan o'zingsan...

Ushbu aforistik matn she'r ko'rinishida bo'lib, aniq atribut shaklida aks etgan. Ya'ni ushbu hikmatli so'zning muallifi aniq ko'rsatilib, hikmatli so'zning asl mazmuni ham qissa qahramoni Shamsibek tomonidan izohlangan.

Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanida asar qahramoni Sultonali o'zining fikrini dalillash maqsadida Shayx Sa'diyning hikmatli so'zlaridan foydalangani aks ettirilgan:

"Menim hukmimga qanoat qilmasangiz, hikmatga qarang. Shayx Sa'diy:

"Bishuy, ey xiradmand, az on do'st dast,

Ki bo dushmanonam buvad hamnashast" deydirilar..." (Qodiriy 2014, 429).

Bunda yozuvchi aforizmni Shayx Sa'diy yozgan fors tilida qo'llaydi, ammo uning tarjimasini ham beradi: *"Ey hushyor kishi! Dushmanlaring bilan birga o'turushkan – hamsuhbat bo'lgan do'stingdan qo'l yuvg'il"* tarzida. Aytishimiz mumkinki, bu holat aforizmning badiiy matnda aks etish usulining ikkinchi ko'rinishi "takror ishlab chiqarishning o'ziga xosligi: aforizmning aniqligi; ba'zan keltirilgan matnning asl tili saqlanib qoladi", degan talabga misol bo'la oladi.

Shuningdek, aforizmlarning o'ziga xos quyidagi xususiyatlarini qayd etish mumkin:

- qisqalik aforistik matnning yaxlitligi va izchilligini buzmagani holda to'liq iqtibos keltirish imkonini beradi, bu esa barcha umumiy matn va tipologik xususiyatlarning saqlanishini ta'minlaydi;

- aforizm muallifi, konkret tarixiy shaxs nomining nufuzi iqtibosning argument sifatidagi qiymatini oshiradi;

- aforizmning tematik tuzilishi. "Kesilgan argumentatsiya" deb ta'riflangan, aniq matn hajmini oshirmasdan, iqtibos matnining umumiy axborot hajmini oshirishga yordam beradi.

Ushbu xususiyatlar aforistik matnning o'qishlilik darajasini ta'minlashga, tushunarligi va eng muhimi, ta'sirchanligini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, badiiy asarda qo'llangan aforizm asar xarakteri bilan bog'liq bo'lgan obrazlar ma'lum bir guruhining umumlashtirilgan tasvirini aks ettira oladi. Bir asar qahramoniga tegishli bo'lgan bir nechta aforistik matnlar, obrazning

axloqiy xaritasini, uning xarakter portretini tanishtirishi mumkin. Tohir Malikning "Falak" qissasida Ahmad Yassaviy qalamiga mansub aforizm asar qahramoni Shamsibek nutqida qo'llangan. Yozuvchi bu aforizmnı qo'llash orqali qahramonning ichki ruhiy holatini, bilim darajasini ham ochib beradi:

*Beshak biling bu dunyo barcha xalqdin o'taro,
Ishonmag'il molingga bir kun qo'ldan ketaro.
Ota-ona, qarindosh qayon keti fikr qil,
To'rt oyog'liq chubin ot bir kun sanga yetaro.
Dunyo uchun g'am yema, Haqdin o'zgani dema,
Kishi molini yema, sirot uzra tutaro...*

- Xo'b hikmatli gaplar ekan, kimniki? - deb so'radi Qamariddin ta'sirlanib. Sultonimniki.. Xoja Ahmad Yassaviy hazratlarining vasiyatlari o'laroq, avlodin avlodga o'tib, bizlarga yetib kelmishdir. (Tohir Malik 2017, 35)

Ahmad Yassaviy hikmatlarining deyarli barchasi aforizm darajasiga ko'tarilgan bo'lib, butun turkiy xalqlar orasida ma'lum va mashhurdir.

Jahon va o'zbek adabiyotida yozuvchi va shoirlar kitobxonga o'z g'oya va maqsadlarini aniqroq, ishonarliroq ifodalash maqsadida intertekstual birliklarning aforizm turidan keng foydalanishadi. Asar qahramonining fikrini dalillash, yoki ma'lum bir fikrga asosli izoh berish maqsadida aforizmlarga murojaat qilishadi.

Tajriba va muhokama

Kuzatishlarimiz natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, o'zbek yozuvchi-shoirlari ko'proq Alisher Navoiy, Rumiy, Sa'diy va Bobur qalamiga mansub hikmatli so'zlardan foydalanishadi. O'zlarining til, siyosat, xulq-atvor, millat kelajagi kabi bir qator masalalarga qaratilgan fikrlarini aynan ushbu buyuk shaxslarning hikmatli so'zlari bilan dalillaydilar. Shu sababli aforizmlarga bo'lgan ehtiyojga javoban buyuklarning aforizmlari alohida to'plam holida nashr etilgan. Alisher Navoiy tomonidan aytilgan hikmatli so'zlarning Izzat Sultonov boshchiligida 1948-yilda "Aforizmlar (Navoiy)" nomi bilan nashr ettirilishi bu boradagi e'tiborli ishlardan biridir. Navoiy qalamiga mansub aforizmlar, asosan, uning "Hayrat ul-abror", "Mahbub ul-qulub" va "Munshoat" asaridan olingan. Bunday alohida aforizmlarga bag'ishlangan kitob tuzilishi esa nafaqat o'zbek yozuvchi-shoirlari uchun zarur manba, balki o'zbek kitobxoni uchun ham amaliy qiymatga egadir.

Hozirgi kunda ommaviy axborot vositalari: televideniye, radio, jurnal, gazeta va internet sahifalari – barchasida berilgan

interviyu va publisistik maqolalarda lisoniy shaxs egalari, albatta, kamida bitta aforizmdan foydalanib ma'lum bir mavzu yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini yoritishadi. Xususan, agar ustoz haqida fikr bildirish lozim bo'lsa, Alisher Navoiyning quyidagi aforizmidan ommaviy ravishda foydalaniladi:

*“Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado, oning haqin yuz ganch ila”*

Agar biror insondan tarbiya xususida fikr so'rasangiz, u xoh og'zaki, xoh yozma tarzda mulohazalarini yoritar ekan, tarbiyaning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ta'kidlaydi va fikrini asoslash maqsadida ko'p holatlarda Abdulla Avloniyning quyidagi aforizmini keltiradi: *“Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir.”* Bu esa qayd etilgan aforizmlarning lisoniy shaxs xotirasida mustahkam o'rin olganligini bildiradi.

Aforizmlarni qo'llash, tushunish, idrok etish insonning aqliy faoliyati, tafakkur darajasi bilan bog'liq. Masalan, Alisher Navoiyning mashhur hikmatida inson idroki bilan bog'liq quyidagi belgilar mavjud:

Izzat tilasang kam de, Sihat tilasang kam ye.

<i>Izzat</i>	<i>obro'-e'tibor, atrofdagilarning hurmati</i>
<i>De</i>	<i>so'zlamog, gapirmog</i>
<i>sihat</i>	<i>sog'liq, tana osoyishtaligi</i>
<i>Ye</i>	<i>iste'mol qilish, ovqatlanish</i>

Mazkur aforizm hayotiy tajriba, kuzatishlar asosida shakllangan. Bu hikmatni ijtimoiy munosabatlarning asosiy yo'riqnomasi sifatida baholash lozim. Mumtoz ma'naviy merosimizda inson ikki voqelik mushtarakligidagi mavjudot sifatida qaralgan: birinchisi ruh, ikkinchisi tana. Inson ko'p gapirsa, obro'sizlanishi suhbatdoshlarning ongida, idrokida yuz beradi. Aforizm xulosasi ana shu idrokidagi hukmga asoslanmoqda. Ko'p yeyishning sog'liqqa zarari esa kundalik tajribadan ma'lum. Bu mezon keyingi davrlarda ham o'z kuchini saqlab qolgan. Shuning uchun ham til sohibi ongidan aksioma tarzida o'rin olgan. Ajdodlar tafakkurida aniqlangan haqiqat keyingi avlod idroki, ongida ham proyeksiyalanadi. Bunga hayot tajribasi, kuzatishlar asos bo'ladi. Shu tufayli aforizmlar har bir davrning haqiqatiga aylanib, uning mazmuni idrok etiladi.

Demak, aforistik matnlar matnlararo aloqaga kirishadi. Bu aloqa davomida aforistik matnning asl kontekstdan tashqarida qabul

qilinishi, so'zlovchining maqsadi va tinglovchining bilim saviyasi bilan bog'liq holda kommunikativ, emotsional-ekspressiv, akkumulyativ funktsiya bajarishi undan doimiy ravishda foydalanilishini ta'minlaydi.

Xulosa

Xulosaqilibaytganda, o'zbek tilida aforizmlarning intertekstual birlik sifatidagi talqini talab darajasida amalga oshirilmagan. Aforizmlar tadqiqotlarda intertekstual birlik sifatida tilga olingan bo'lsa-da, masalada chuqur tahlillar yetishmaydi. Aforistik matnlarning intertekstualligini aniqlash uchun esalengvistik stilistika, matn lingvistikasi, lingvistik pragmatika, kognitiv tilshunoslik hamda adabiyotshunoslik fanlari hamkorligida tadqiqotlar olib borish lozim. Bundan tashqari, aforizmni matnlararo o'ziga xoslik elementi sifatida aniqlashda uning tipologik xususiyatlarini e'tiborga olish talab qilinadi. Shunday yondashilsagina, tahlillar aniq va natijali bo'ladi. Aforistik matnlar badiiy matnga turli ko'rinishlarda, ya'ni she'riy yoki nasriy shaklda kiritiladi. Ularning intertekst sifatida matn semantikasi va strukturasiga bevosita qanday ta'sir ko'rsatishi, so'zlovchi (aforizmni kiritgan shaxs) hamda tinglovchi (kitobxon yoki tomoshabin) dan qay darajadagi bilimlar talab qilinishi tahlillar va tadqiqotlar natijasida aniq ko'rsatiladi.

Aforizmlar shaxs tomonidan yaratilsa-da, millatning idrok mahsuli hisoblanadi. Aforizmlar milliy qadriyatlar, an'analar, xalq dunyoqarashi, e'tiqodi, urf-odat, marosimlariga asoslanadi. Shu bois aforizmlarni to'plash va nashr ettirish buyuk mutafakkirlarning tafakkur qudratini namoyoish etish bilan bir qatorda, xalqning ma'naviy olami, qadriyatlari, milliy munosabatlar haqida muhim ma'lumotlar beradi. Hozirgi kunda dunyo miqyosida kompyuter lingvistikasining, korpus lingvistikasining rivojlanganligi, xususan, o'zbek tilshunosligida ham milliy korpusning shakllantirilayotganligi aforizmlarni to'plash borasida ham qulaylik tug'diradi. Milliy korpuslar aforizmlarni to'plash, saqlab qolish va keingi avlodga yetkazishning eng qulay va samarali vositasidir. Shu bilan bir qatorda aforizmlarni maxsus intertekstual tezauruslarga joylash maqsadga muvofiq. Intertekstual tezauruslar mental leksikon bilan aloqador ma'lumotlarni o'z ichiga oladi va bu o'rinda, aforizmlar birinchi navbatda e'tiborga olinishi zarur.

Adabiyotlar

- Intertextuality. (2015). Online Etymology Dictionary. Dictionary.com website: <http://dictionary.reference.com/browse/intertextuality>.
- Kristeva, J. (1967). Bakhtine, le mot, le dialogue et le roman Texte. / J.

- Kristeva // Critique, – T.
